Advances in Science and Humanities



Advances in Science and Humanities, 2026, 11–13

doi: 10.70728/human.v02.i07.003
Volume 02, Issue 07
ISSN: 3060-5393
Paper

PAPER

BUXORO AMIRLIGIDA SOLIQ TIZIMI

Davlatova Go‘zal[1,*]

[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

* davlatova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada 1756-1920-yillarda Buxoro amirligidagi soliq tizimi, uning turlari,xususiyatlari,mazmun-mohiyati,miqdori va qaysi hukmdorlar davrida qanday soliqlar mavjudligi va miqdori yoritiladi.SHuningdek to‘lov va yig‘imlar haqida ma’lumot beradi.

Key words: Buxoro amirligi, soliq tizimi, xiroj, zakot, ushr, boj,jizya moliya siyosati, iqtisodiy tarix, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, soliq yig‘imlari, tarixiy manbalar.

Buxoro amirligi tariximizda katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lib, uning iqtisodiyotida soliq tizimi muhim bo‘lgan. Soliq tizimi nafaqat ,davlat moliya tizimini shakllantirish vositasi ,balki ijtimoiy munosabatlarni taribga soluvchi mexanizm vazifasini ham bajargan. Odatda soliqlar aholidan natura va pul ko‘rinishda yig‘ilgan. Hokim ham o‘z o‘rnida yig‘ilgan soliqlarni to‘n, ot, bug‘doy kabilarni o‘z holicha natural ko‘rinishda yuborgan. Naqd pul ko‘rinishidagi soliqlarni odatda savdogarlar to‘lagan .

Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to‘lovlar amalda qo‘llanilgan bo‘lib, beklar tomonidan yig‘ib olingan .

Buxoro amirligida soliq tizimini boshqarishda muayyan toifadaagi davlat mulozimlarigina emas, balki, amirlik mulozimlarining deyarli barchasi ishtirok etgan .Amirlikdagi mulozim va amaldorlarning nomlanishi va asl xizmat lavozimlari boshqa sohaga qaratilgan bo‘lishi bilan birga soliq tizimini boshqarishda ham bevosita va bilvosita xizmat vazifalari bo‘lgan.

Ular o‘zlarining birlamchi xizmat vazifalarini bajarish bilan birga soliq tizimida ham o‘zlariga topshirilgan vazifalarni bajargan.Tadqiqotlar natijasi Buxoro amirligining asosiy davlat daromad manbai bo‘lgan soliq tizimining o‘ta muhimligi sababli soliq tizimini boshqarish va nazorat qilishga amirdan boshlab mahalliy boshqaruvgacha barcha amaldorlar ma’sul bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Raiyatdan yig‘ib olingan soliq-to‘lovlar miqdori ham shariat me’yor va talablari asosida belgilangan va turli joylarda uzoq yillardan

Compiled on: April 14, 2026.
Copyright:©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

beri tartibga kirgan taomuli qadim (qadimgi odat)bo‘yicha soliqlar yig‘imi me’yori bo‘lgan Unga ko‘ra, soliqlar va ularning miqdori turli tumanlarda har xil olingan hamda bunda yerning hosildorligi ,sug‘orilish holati va unumdorlik holati e’tiborga olingan. Bu davrda dehqonchilik va bog‘dorchilik mahsulotlaridan shariatda ko‘rsatilgan tartibda ushr va xiroj olingan .SHulardan keng tarqalgani xiroj (mol)solig‘i sanalgan.Manbalarda qayd etilishicha ,xiroj miqdori hosilning 1/3 dan 1/10 hajmiga qadar o‘zgarib turgan .Bu soliq asosan ,davlat va xususiy yerlardan olingan.Davlat yerlaridan “zamini mayita”ga ishlov bergan korandalar hosilning 5/1 miqdorida xiroj to‘laganlar .Xiroj asosan ,hosilning miqdoriga qarab ,natura hisobida olingan .Tovar-pul munosabatlarining rivojlanib borishi bilan,XIX asr boshlaridan xiroj solig‘i pul tariqasida ham olingan. Xiroj tarkibiga kiruvchi daromad solig‘i tanobona bo‘lib ,u chorbog‘, bog‘,boxcha va alaf ekilgan yerlardan ekin turiga qarab olingan.M.Abduraimov ,bu soliq Karmana viloyati uzumzorlarining har tanobidan 1 ashraf miqdorida olinganligi,boshqa hollarda ,natura tarzida hosilning 1/3 miqdorida bo‘lganligini ma’lum qiladi. Buxoro amirligida asosiy soliqlar bilan bir qatorda qonuniy tusga kirgan davlat to‘lovlari ham joriy etilgan.Bu to‘lovlar davlat idoralari ,fuqarolik ishlari, ma’murlar xizmati va boshqa xarajatlar uchun olingan.Masalan,bahor faslida dala ishlari boshlanishidan avval yerni haydamoqchi bo‘lgan har bir juft ishlaydigan chorvadan 4 tangadan 8 tangagacha bo‘lgan miqdorda qo‘sh puli olingan.SHundaylardan yana biri Amir SHohmurod tomonidan joriy etilgan jul to‘lovi bo‘lgan. Uning vorisi Amir Haydar davrida bu to‘lov miqdori Karmana fuqarolaridan150 tilla ,Kattaqo‘rg‘on aholisidan 320 tilla, Payshanbaning jaloyir urug‘idan 125 tilla ,Yangiqo‘rg‘on aholisidan 30 tilla hisobida olingan. Nafaqat dehqonlar,balki barcha fuqarolar davlatga shuningdek,taxtijoy, mirobona ,muhrona , cho‘p puli , objuvoz puli va boshqa turdagi to‘lovlar to‘lagan .

Bundan tashqari qo‘shindagi askarlarning muntazam ravishda yegulik va oziq-ovqat bilan ta’minlanib turishi uchun aholidan urush paytlarida – “Qozon puli” solig‘i yig‘ib olingan .

Mazkur to‘lov- yig‘imlar asosan, davlat g‘aznasiga yuborilgan va muayyan qismi viloyatlar ehtiyoji uchun qoldirilgan.

CHorvadorlardan olingan asosiy soliq turlaridan biri zakoti savoit bo‘lib ,uning bir nisobi misol uchun ,5ta tuyadan bir qo‘y,40ta qo‘ydan bir qo‘y, yoki echki hisobida natura tarzida yoki naqd hisobida olingan .40 boshdan kam chorvaga ega bo‘lgan xo‘jalik zakoti chakana to‘lagan.Ba’zan soliq yig‘imida davlat yoki shariat talablari bilan hisoblashmagan amoldorlar suiiste’molikka yo‘l qo‘ygan .Amir Haydar tomonidan chiqarilgan farmonlardan birida bunday holatlarning oldini olish maqsadida ,tog‘oralig‘ida boqilayotgan qo‘ylarning oriq va semizligiga qarab,sha’riy qilib zakot olish va egalari qo‘liga xat qilib berish buyurilgan hamda qonunga xilof ish tutganlar jazolanishi ta’kidlangan. Raiyat tabaqasi asosiy soliq- to‘lovlarni to‘lash barobarida, turli xil majburiyatlar,xususan,sug‘orish inshoatlarini ta’mirlash, yo‘l va ko‘priklar qurilishi ,hashar ishlari (xarji qa’la ,begar,mardikorlik) da ishtirok etgan. Ba’zan hukumat ma’murlari tomonidan aholidan mardikorlik qilib berish o‘rniga pul olingan.Hukumat tomonidan bunday g‘ayri qonuniy xatti-harakatlarga qarshi choralar ko‘rilgan. SHunday choralardan biri Amir Haydar tomonidan chiqarilgan bo‘lib, unga ko‘ra ,Xonobod ,Qo‘rg‘oshim,Yangikent,G‘uzor aholisidan mardikorlarni G‘urjob qa’lasini ta’mirlash uchun jalb etishga ko‘rsatma bergan amir, mutassadi amaldorga aholidan mardikorlik o‘rnida pul olishga yo‘l qo‘ymaslikni buyirgan .Odatda, bunday holatlarga yo‘l qo‘yilsa,qozilik tartiblari asosida chora ko‘rilgan,biroq shunga qaramay ,ma’murlarning o‘z mansabini suiiste’mol qilishi hollari ko‘p uchragan .

Savdogarlar qatlami esa zakot va boj soliqlarini to‘lagan. ”Zakot “so‘zi arab tilida “poklash,”yaxshilik”,”ehson”va”sadaqa”ma’nolarini beradi.Amirlik qonunlariga ko‘ra ,zakot olishda albatta chorvaning zoti va sifatiga katta e’tibor bergan holda zakot miqdori naqd pulga hisoblangan .Amirlikdagi soliq amaliyotiga ko‘ra ,tijorat daromadlaridan olinadigan zakotlar zakoti tijorat deb yuritilgan va mahsulot turiga qarab nomlangan.Gazlama o‘ramlari toy deb nomlangan va bozorlarda sotish uchun keltirilgan gazlamalarning toyiga qarab zakot olingani uchun

toy puli deb nomlangan.Rus tilidagi manbalardan nomusulmonlarning barchasi imkoniyatiga qarab soliq to‘laganliklari haqida ma’lumot olish mumkin. Bu soliq turi jizya deb nomlanib ,o‘rganilayotgan davr muallifi kambag‘allar har oyda 1 tangadan ,o‘rta hollar 2 tangadan ,boylar 6 tangadan to‘laganliklari haqida ma’lumot bergan.Buxoro amirligida ham davlat himoyasida yashagan nomusulmonlar bo‘lib ular davlatga jizya to‘lagan va davlat himoyasida bo‘lgan .

Xulosa qilib aytishim mumkinki ,Soliq tizimi har bir davr uchun muhim hisoblanadi .U davlatning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy hayotini ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Buxoro amirligidagi soliq siyosatini tahlil qilish natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur tizim o‘z davri uchun muayyan darajada samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, uning eskirgan shakllari va qat’iy me’yorlashmaganligi iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qilgan. Ayniqsa, soliq yukining to‘g‘ri taqsimlanmaganligi ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirgan va bu holat keyinchalik amirlikning ichki zaiflashuviga ham ta’sir ko‘rsatgan.SHuningdek ushbu maqola orqali biz Buxoro amirligida hukmdorlarning soliq siyosatini qanchalik adolatli olib borgani haqida ham ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

Shu bilan birga, soliq tizimining amaliy ijrosi ko‘p hollarda markaziy nazoratning sustligi bilan xarakterlanib, mahalliy amaldorlar tomonidan soliqlarni yig‘ishda subyektiv omillarning ustun bo‘lishiga olib kelgan. Natijada aholining turli qatlamlari o‘rtasida soliq yukining adolatsiz taqsimlanishi kuzatilgan. Ayniqsa, dehqonlar va quyi tabaqa vakillari asosiy soliq yukini ko‘tarishga majbur bo‘lgan, bu esa ularning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda, Buxoro amirligida soliq tizimi tarixiy jihatdan muhim tajriba sifatida baholanib, u Markaziy Osiyo hududida davlat boshqaruvi va moliyaviy siyosat evolyutsiyasini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tizimni ilmiy jihatdan o‘rganish esa nafaqat tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash, balki zamonaviy soliq siyosatini takomillashtirish uchun ham muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bugungi kunda ham soliq siyosatiga katta e’tibor qaratilayapti. Fikrimizning dalili sifatida muhtarram yurtboshimizning quyidagi fikrlari orqali ham bilib olishimiz mumkin.Biz inson qadrini ulug‘lashni e’lon qildik, xalqimizni rozi qilishga harakat qilayapmiz. Xalqimiz qachon rozi bo‘ladi? Soliq kam bo‘lib, daromadi oshsa, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

References

1. Azizov.I.SH “XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshida Buxoro amirligida soliq tizimi” Toshkent-2018, 18-49-59-64-betlar .
2. Normurodova.G.B “Buxoro amirligi ijtimoiy qatlamlari va ularning ijtimoiy –iqtisodiy hayotdagi roli (1868-1920-yillar)” Toshkent-2020 ,106-107-108-116-betlar.
3. SHodiyeva .SH .S,Rahmatilloyev .N.H “Buxoro amirligida tinchlik va favqulotda holatlarda yig‘ilgan soliqlar xususida “ Buxoro-2024
4. Qarshiyev A.A “SURXON VOHASINING AGRAR VA SOLIQ TIZIMI HAQIDA” “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 6-sonli respublika ilmiy konferensiyasi.
5. SHodiyev .J.M.”Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi”,Toshkent-2010.